

UDK 821.111(73)-3:82.09

**ERNEST HEMINGUEYNING “CHOL VA DENGIZ” ASARIDA
MARLIN OBRAZINING SUBYEKTLIK MAQOMI**

Alqarov Nazarbek Alisher o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada Ernest Hemingueyning “Chol va dengiz” qissasida marlin obrazining subyektlik maqomi tahlil qilinadi. Subyektlik maqomi to‘rt ko‘rsatkich, ya’ni mustaqil tanlov, kompozitsion zarurlik, tanaviy tasvirning to‘liqligi va qahramon nutqidagi murojaat shakli asosida baholanadi. Har bir ko‘rsatkich aslyat matnidan olingan parchalar bilan izohlanadi. Tahlil natijasida marlin obrazi an’anaviy o‘lja maqomidan chiqib, matnda mustaqil harakat manbasiga aylanishi, biroq uning ichki dunyosi tasvirlanmasligi hisobiga subyektlik to‘liq shakllanmasligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: subyektlik maqomi, marlin obrazi, adabiy agent, mustaqil tanlov, tanaviy tasvir, murojaat shakli, Ernest Heminguey

**THE STATUS OF SUBJECTHOOD OF THE MARLIN IMAGE
IN ERNEST HEMINGWAY’S “THE OLD MAN AND THE SEA”**

Abstract: The article analyses the status of subjecthood of the marlin image in Ernest Hemingway’s novella “The Old Man and the Sea”. The status is assessed through four indicators: independent choice, compositional necessity, completeness of bodily description and the form of address in the protagonist’s speech. Each indicator is illustrated by passages drawn from the original text. The analysis substantiates that the marlin image moves beyond the traditional status of prey and becomes an independent source of action in

the text, yet subjecthood is not fully formed because the creature's inner world is not depicted.

Keywords: status of subjecthood, marlin image, literary agent, independent choice, bodily description, form of address, Ernest Hemingway

СТАТУС СУБЪЕКТНОСТИ ОБРАЗА МАРЛИНА В ПОВЕСТИ ЭРНЕСТА ХЕМИНГУЭЯ «СТАРИК И МОРЕ»

Аннотация: В статье анализируется статус субъектности образа марлина в повести Эрнеста Хемингуэя «Старик и море». Статус оценивается по четырём показателям: самостоятельный выбор, композиционная необходимость, полнота телесного описания и форма обращения в речи героя. Каждый показатель иллюстрируется фрагментами из оригинального текста. Анализ обосновывает, что образ марлина выходит за пределы традиционного статуса добычи и становится самостоятельным источником действия, однако субъектность не формируется полностью, поскольку внутренний мир существа не изображается.

Ключевые слова: статус субъектности, образ марлина, литературный агент, самостоятельный выбор, телесное описание, форма обращения, Эрнест Хемингуэй

Kirish:

Badiiy matnda hayvon obrazining maqomi ko'pincha ikki qutb orasida belgilanadi: u yo insonning harakati qaratilgan predmet, yo o'z harakatiga ega bo'lgan ishtirokchi hisoblanadi. Birinchi holatda obraz voqeaning sharti, ikkinchi holatda esa uning manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu ikki holat orasidagi oraliq zona adabiyotshunoslikda eng kam o'rganilgan maydonlardan biri bo'lib qolmoqda. "Chol va dengiz" qissasi shu masalani qo'yish uchun qulay material beradi. Asarda hayvon obrazi butun syujetning markazida turadi, u

bilan qahramon uzoq vaqt yakkama-yakka qoladi va munosabat bosqichma-bosqich o'zgarib boradi. Shu holat obrazning maqomini bosqichlar bo'yicha kuzatish imkonini yaratadi. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, o'zbek adabiyotshunosligida qissa ko'proq qahramon xarakteri va falsafiy mazmuni nuqtayi nazaridan talqin qilingan, markaziy jonzot obrazining o'z maqomi esa alohida masala sifatida qo'yilmagan. Maqolaning maqsadi shu maqomni to'rt ko'rsatkich asosida baholashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili:

Adabiy matnda hayvonning harakat qilish qobiliyatini nazariy jihatdan asoslagan tadqiqotchi adabiy agent tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan [1]. Uning fikricha, obraz agent maqomiga ega bo'lishi uchun uning harakati bayon yo'nalishiga ta'sir qilishi kerak. Bu qoida maqomni baholash uchun tayanch ko'rsatkich beradi. Inson va hayvon o'rtasidagi chegara masalasini nazariy jihatdan tahlil qilgan tadqiqotchi bu chegaraning badiiy matnda barqaror emasligini ko'rsatgan [2]. Uning kuzatuv obrazning oraliq maqomini izohlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotshunoslik va adabiy hayvon tadqiqotlari kesishmasidagi umumiy manzarani tizimlashtirgan ish esa hayvon obrazining matndagi mavqeini baholashda tanaviy tasvirning roli alohida ekanini qayd etadi [3]. Qissa matnini bevosita tahlil qilgan tadqiqotlarda markaziy obraz turlicha talqin qilinadi. Bir yo'nalishda u qahramonning ichki kurashini ochuvchi vosita sifatida qoraladi [4], boshqa yo'nalishda esa mustaqil badiiy qiymatga ega obraz sifatida baholanadi [5]. Hayvon obrazining madaniy tarixdagi o'rnini o'rgangan tadqiqotchi jonzotga qaralishning o'zi allaqachon munosabat shakli ekanini ta'kidlaydi [6]. Bu qoida qissadagi kuzatish sahnalarini izohlashda qo'l keladi.

Tadqiqot metodologiyasi:

Tadqiqotda matn ustida ishlash, kontekstual tahlil va tavsifiy metod qo'llanildi. Material sifatida "The Old Man and the Sea" qissasining asliyat

matni olindi va barcha iqtiboslar asl nashrdan keltirildi. Subyektlik maqomini baholash uchun to‘rt ko‘rsatkich belgilandi: mustaqil tanlov, ya’ni jonzotning o‘z yo‘nalishini o‘zi belgilashi; kompozitsion zarurlik, ya’ni obraz olib tashlanganda matn tuzilishida yuzaga keladigan buzilish darajasi; tanaviy tasvirning to‘liqligi; va qahramon nutqidagi murojaat shakli. Har bir ko‘rsatkich uchun yopiq tekshiruv savoli tuzildi va javob matndagi holatga qarab berildi. Iqtiboslarning o‘zbekcha muqobili qavs ichida muallif tarjimasini sifatida keltiriladi.

Tahlil va natijalar:

Birinchi ko‘rsatkich, ya’ni mustaqil tanlov, matnda bevosita qayd etiladi. Jonzotning chuqur suvda qolish qarori qahramonning mulohazasi orqali beriladi: “His choice had been to stay in the deep dark water far out beyond all snares and traps and treacheries” [7 – B. 55.] (“Uning tanlovi barcha tuzoq, qopqon va hiylalardan uzoqdagi chuqur qorong‘i suvda qolish edi” – muallif tarjimasini). Bu jumlada tanlov atamasi bevosita qo‘llanadi va u jonzotga nisbatan ishlatiladi. anlovning natijasi bayon yo‘nalishiga ta’sir qiladi. Qayiqning harakati jonzotning qaroriga bog‘liq bo‘lib qoladi: “four hours later the fish was still swimming steadily out to sea, towing the skiff” [7 – B. 50.] (“to‘rt soatdan keyin ham baliq qayiqni sudragancha dengiz tomon bir maromda suzib borardi” – muallif tarjimasini). Bu yerda harakat manbai inson emas, jonzot hisoblanadi va shu holat adabiy agent mezoniga to‘g‘ri keladi [1]. Yo‘nalishning barqarorligi alohida ta’kidlanadi: “The fish never changed his course nor his direction all that night” [7 – B. 51.] (“Baliq o‘sha tun davomida na yo‘lini, na yo‘nalishini o‘zgartirdi” – muallif tarjimasini). Barqarorlik tasodifiy harakatdan farq qiladi, negaki u qaror mavjudligini bildiradi. Ikkinchi ko‘rsatkich kompozitsion zarurlik bilan bog‘liq. Obrazni matndan olib tashlash mumkin emas, chunki butun voqea uning atrofida quriladi. Qahramonning holati ham unga bog‘liq holda o‘zgaradi: “When the sun had risen further the old man realized that the fish was not tiring” [7 – B.

58.] (“Quyosh yanada ko‘tarilganda chol baliqning charchamayotganini angladi” – muallif tarjimasi). Bu jumlada inson jonzotning holatiga qarab o‘z rejasini o‘zgartiradi.

Kompozitsion zarurlikning yana bir belgisi vaqt o‘lchovida ko‘rinadi. Asardagi kunlar jonzotning harakati bilan sanaladi: “The sun was rising for the third time since he had put to sea when the fish started to circle” [7 – B. 94.] (“Baliq aylana chiza boshlaganda quyosh dengizga chiqqanidan beri uchinchi marta ko‘tarilayotgan edi” – muallif tarjimasi). Vaqtning jonzot harakati orqali o‘lchanishi obrazning matn tuzilishidagi markaziy o‘rnini tasdiqlaydi. Uchinchi ko‘rsatkich tanaviy tasvirning to‘liqligiga tegishli. Jonzotning tashqi qiyofasi bosqichma-bosqich ochiladi va bu jarayon asarning uzoq qismini egallaydi. Birinchi to‘liq ko‘rinish shunday beriladi: “He was bright in the sun and his head and back were dark purple and in the sun the stripes on his sides showed wide and a light lavender” [7 – B. 69.] (“U quyoshda yorqin edi, boshi va beli to‘q binafsha rangda, quyoshda yon tomonidagi yo‘l-yo‘l chiziqlar keng va och lavanda tusida ko‘rinardi” – muallif tarjimasi). Tasvirning tafsilotlari kasbiy aniqlik bilan beriladi: “his purple pectoral fins set wide as wings and the great erect tail slicing through the dark” [7 – B. 74.] (“qanotdek keng yoyilgan binafsha ko‘krak suzgichlari va zulmatni kesib o‘tayotgan ulkan tik dumi” – muallif tarjimasi). Bunday tasvir jonzotni turkumga emas, aniq bir mavjudotga aylantiradi.

Ko‘z tasviri alohida e‘tiborga loyiq, negaki nigoh subyektlik belgisi sifatida qaraladi: “His eye is huge and a horse, with much less eye, can see in the dark” [7 – B. 74.] (“Uning ko‘zi juda katta, ancha kichik ko‘zga ega ot esa qorong‘ida ko‘ra oladi” – muallif tarjimasi). Bu yerda qahramon jonzotning sezgi imkoniyati haqida mulohaza yuritadi, ya‘ni unga ichki tajriba borligini tan oladi. To‘rtinchi ko‘rsatkich qahramon nutqidagi murojaat shakliga tegishli. Munosabat qarindoshlik atamasi bilan ifodalanadi: “There are three things that are brothers: the fish and my two hands” [7 – B. 70.] (“Uchta

birodar narsa bor: baliq va mening ikki qo‘lim” – muallif tarjimasini). Jonzot inson tanasining a‘zolari bilan bir qatarga qo‘yiladi va bu qiyos ierarxiyani buzadi.

Munosabatning ziddiyatli tabiati ham ochiq ko‘rsatiladi: “he was sorry for the great fish that had nothing to eat and his determination to kill him never relaxed in his sorrow for him” [7 – B. 83.] (“u yeydigan hech narsasi bo‘lmagan ulkan baliqqa achinardi va uni o‘ldirish qat’iyati bu achinish tufayli sira susaymasdi” – muallif tarjimasini). Achinish va o‘ldirish niyati bir jumlada yonma-yon keladi, ya’ni ikki munosabat bir-birini istisno qilmaydi. O‘rin almashish istagi esa munosabatning eng yuqori nuqtasini belgilaydi: “I wish I was the fish, he thought, with everything he has against only my will and my intelligence” [7 – B. 71.] (“Koshki men baliq bo‘lsam edim, deb o‘yladi u, unda bor narsalarning hammasi faqat mening irodam va aqlimga qarshi turgan bo‘lardi” – muallif tarjimasini). Qahramon jonzotning o‘rnini tasavvur qiladi va shu bilan uni teng ishtirokchi sifatida tan oladi.

Yakuniy sahnada munosabat qarindoshlik atamasi bilan yana bir bor mustahkamlanadi: “But I have killed this fish which is my brother and now I must do the slave work” [7 – B. 105.] (“Ammo men birodarim bo‘lgan bu baliqni o‘ldirdim va endi qul ishini bajarishim kerak” – muallif tarjimasini). O‘ldirish harakati va qarindoshlik e’tirofi bir jumlada birlashadi. To‘rt ko‘rsatkich bo‘yicha olingan natijalar quyidagicha umumlashtiriladi. Mustaqil tanlov ko‘rsatkichi yuqori darajada namoyon bo‘ladi, kompozitsion zarurlik ham eng yuqori bosqichda turadi, tanaviy tasvir esa to‘liq va bosqichma-bosqich beriladi. Murojaat shakli qarindoshlik atamasiga yetadi, ya’ni u eng yaqin munosabat turini bildiradi.

Shu bilan birga subyektlik to‘liq shakllanmaydi va buning aniq sababi bor. Jonzotning ichki holati matnda hech qachon bevosita tasvirlanmaydi. Uning nima his qilayotgani, nima o‘ylayotgani haqidagi ma’lumot faqat qahramonning taxmini orqali beriladi. Voqea bir ongning nigohi bilan

chegaralangani sababli jonzot mustaqil kuzatish nuqtasiga ega bo'lmaydi [3]. Obrazning maqomi shu tariqa oraliq holatda qoladi. U an'anaviy o'lja darajasidan ancha yuqori turadi, negaki uning tanlovi, harakati va tanasi mustaqil tasvirlanadi. Ayni paytda u to'liq subyekt ham emas, chunki uning ongi matnga kiritilmagan. Aynan shu oraliq holat obrazning badiiy kuchini belgilaydi [2].

Yana bir kuzatuv nomlanish tizimiga tegishli. Markaziy jonzot butun asar davomida turkum nomi bilan ataladi va unga atoqli nom berilmaydi. Bu holat obrazning maqomini pasaytirmaydi, aksincha, uni turkumning vakili emas, muayyan mavjudot sifatida ko'rsatishga xizmat qiladi, negaki tasvir tafsilotlari uni boshqalardan ajratib turadi [5]. Obrazning kuchi ham alohida ko'rsatkich sifatida qayd etiladi. Matnda jonzotning tabiatdagi o'rni to'g'ridan to'g'ri ta'riflanadi: "This was a fish built to feed on all the fishes in the sea, that were so fast and strong and well armed that they had no other enemy" [7 – B. 111.] ("Bu dengizdagi barcha baliqlar bilan oziqlanish uchun yaratilgan baliq edi, ular shu qadar tez, kuchli va yaxshi qurollangan ediki, boshqa dushmani yo'q edi" – muallif tarjimas). Bunday ta'rif jonzotni voqeadan tashqaridagi tizimga ham joylashtiradi.

O'lim sahnasi obrazning maqomi eng yuqori nuqtaga chiqadigan o'rin hisoblanadi: "Then the fish came alive, with his death in him, and rose high out of the water showing all his great length and width and all his power and his beauty" [7 – B. 104.] ("Shunda o'limini ichiga olgan baliq jonlandi va suvdan baland ko'tarilib, butun uzunligi, kengligi, kuchi hamda go'zalligini namoyish qildi" – muallif tarjimas). Bu jumlada halokat va namoyish bir vaqtda beriladi, ya'ni jonzot o'lim lahzasida eng to'liq ko'rinishga ega bo'ladi. Yakuniy holatda esa nigoh masalasi yana qaytadi: "the fish's eye looked as detached as the mirrors in a periscope or as a saint in a procession" [7 – B. 107.] ("baliqning ko'zi periskop oynalari yoki marosimdagi avliyo singari betaraf ko'rinardi" – muallif tarjimas). Qiyos ikki tomonlama

ishlaydi: texnik asbob va muqaddas timsol bir qatorga qo'yiladi va shu bilan jonzotning maqomi noaniq qoldiriladi.

Tahlil natijalarini ko'rsatkichlar bo'yicha jamlaganda quyidagi manzara hosil bo'ladi. Mustaqil tanlov va kompozitsion zarurlik yuqori pog'onada, tanaviy tasvir to'liq, murojaat shakli esa eng yaqin turda. Faqat bitta ko'rsatkich, ya'ni ichki holatning tasvirlanishi quyi pog'onada qoladi va aynan shu ko'rsatkich subyektlikning to'liq shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Kurash jarayonining bosqichliligi ham obraz maqomini oshiruvchi omil hisoblanadi. Jonzot bir zumda yengilmaydi, uning qarshiligi kunlar davomida davom etadi va har bosqichda yangi belgi ochiladi: "The fish just moved away slowly and the old man could not raise him an inch" [7 – B. 49.] ("Baliq shunchaki sekin uzoqlashdi va chol uni bir dyuym ham ko'tara olmadi" – muallif tarjimasi). Bu yerda inson kuchining chegarasi jonzotning kuchi orqali o'lchanadi.

Aylana chizish bosqichida esa munosabat teng kurash shaklini oladi: "On each calm placid turn the fish made he was gaining line and he was sure that in two turns more he would have a chance to get the harpoon in" [7 – B. 100.] ("Baliq chizgan har bir tinch va vazmin aylanada u chilvirni yig'ib borardi va yana ikki aylanadan keyin garpun urish imkoni tug'ilishiga ishonardi" – muallif tarjimasi). Jonzotning harakati tinch va vazmin deb ta'riflanadi, ya'ni unga vahima emas, o'lchovli xatti-harakat nisbat beriladi.

Xulosa:

Marlin obrazining subyektlik maqomi to'rt ko'rsatkich asosida baholandi. Mustaqil tanlov va kompozitsion zarurlik ko'rsatkichlari eng yuqori darajada, tanaviy tasvirning to'liqligi esa bosqichma-bosqich ochiluvchi shaklda namoyon bo'ladi. Qahramon nutqidagi murojaat shakli qarindoshlik atamasiga yetadi va bu munosabatning eng yaqin turini bildiradi. Ayni paytda achinish va o'ldirish niyati bir jumlada yonma-yon kelishi munosabatning ziddiyatli tabiatini ko'rsatadi. Subyektlikning to'liq

shakllanmasligi jonzotning ichki holati tasvirlanmasligi bilan izohlanadi. Voqea bir ongning nigohi bilan chegaralangani sababli obraz mustaqil kuzatish nuqtasiga ega bo'lmaydi.

Umumiy natija shundan iboratki, marlin obrazi an'anaviy o'lja maqomidan chiqib, matnda mustaqil harakat manbasiga aylanadi, biroq to'liq subyekt darajasiga yetmaydi. Aynan shu oraliq holat obrazning badiiy kuchini va uni tahlil uchun qiziqarli qiladigan jihatini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. McHugh S. Literary Animal Agents // PMLA. – New York, 2009. – Vol. 124, No. 2. – P. 487–495.
2. Wolfe C. Animal Rites: American Culture, the Discourse of Species, and Posthumanist Theory. – Chicago: University of Chicago Press, 2003. – 237 p.
3. Ortiz-Robles M. Literature and Animal Studies. – London; New York: Routledge, 2016. – 232 p.
4. Young P. Ernest Hemingway: A Reconsideration. – University Park: Pennsylvania State University Press, 1966. – 297 p.
5. Baker C. Hemingway: The Writer as Artist. – 4th ed. – Princeton: Princeton University Press, 1972. – 438 p.
6. Berger J. Why Look at Animals? // About Looking. – New York: Pantheon Books, 1980. – P. 1–26.
7. Hemingway E. The Old Man and the Sea. – New York: Charles Scribner's Sons, 1952. – 140 p.